



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA PSIXODIDAKTIK YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

**Xidoyatova Dilafruz Abdug'afforovna,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[khidoyatovadilafruz@gmail.com](mailto:khidoyatovadilafruz@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1589>

### MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 30

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

psixodidaktika, o'zbek tili, ikkinchi til, interfaol metodlar, motivatsiya, kognitiv jarayonlar

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda psixodidaktik yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali o'qitish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotda psixologik va didaktik omillarning integratsiyasi asosida o'qitish samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan. Metodologiya sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, kuzatish, so'rovnoma va psixologik diagnostika usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar o'quvchilarning kognitiv faolligini, motivatsiyasini va emotsional holatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot davomida psixodidaktikaning asosiy komponentlari — kognitiv, motivatsion, emotsional va ijtimoiy omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi asoslandi. Shuningdek, interfaol metodlarning didaktik samaradorligi, xususan, bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi va uzoq muddatli xotirada saqlanishiga ta'siri isbotlandi. Tadqiqot natijasida interfaol ta'limning psixodidaktik modeli ishlab chiqildi. Xulosa sifatida psixodidaktik yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quv samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanligi asoslab berildi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 30

### KEYWORDS

psychodidactics, Uzbek language, second language acquisition, interactive methods, motivation, cognitive processes

### ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and practical foundations of the psychodidactic approach to teaching Uzbek as a second language in general education schools. The relevance of the study is обусловлена the need for effective teaching that takes into account students' individual psychological characteristics in the context of modern education. The research highlights the integration of psychological and didactic factors in improving the effectiveness of the teaching process. The methodology includes analysis of scientific literature, observation, surveys, and psychological diagnostic methods. The findings indicate that interactive teaching methods significantly enhance students' cognitive activity, motivation, and emotional engagement. The study identifies the main components of psychodidactics—cognitive, motivational, emotional, and social factors—and substantiates their interrelation. In addition, the didactic effectiveness of interactive methods is demonstrated, particularly in terms of deeper knowledge acquisition and long-term retention. As a result of the study, a psychodidactic model of interactive teaching was developed. The findings confirm that the implementation of a psychodidactic approach contributes significantly to improving learning outcomes.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Bunday sharoitda til o'qitish, ayniqsa, ikkinchi tilni o'rgatish jarayoni yanada murakkablashib, kompleks yondashuvni talab etmoqda. Umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'zga millat vakillariga o'rgatish jarayonida o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda ta'kidlanganidek, til o'rganish samaradorligi faqat metodik yondashuv bilan emas, balki o'quvchilarning motivatsiyasi, emotsional holati va kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois psixologiya va didaktikaning integratsiyasi sifatida shakllangan psixodidaktika til o'qitish jarayonida samarali ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitishda psixodidaktik yondashuvning nazariy asoslarini ochib berish va uning amaliy ahamiyatini asoslashdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Psixodidaktika tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlari integratsiyasi natijasida shakllangan bo'lib, uning rivojlanishida bir qator yirik olimlarning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi.

Xususan, L.S. Vigotskiy ta'lim jarayonida ijtimoiy omillar va yaqin rivojlanish zonasini nazariyasini asoslab, o'quvchining faol ishtiroki bilimlarni chuqur o'zlashtirishda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi[1]. Uning fikricha, o'quv jarayoni o'quvchining mavjud bilim darajasi bilan potensial rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlikka asoslanishi lozim.

J. Piage esa kognitiv rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, o'quvchilar bilimni passiv emas, balki faol tarzda o'zlashtirishini asoslab bergan[2]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilar o'z tajribalari asosida bilimlarni konstruksiya qiladi.

J. Bruner tomonidan ilgari surilgan spiral o'qitish modeli esa bilimlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish orqali o'quvchilarning tushunish darajasini oshirishga xizmat qiladi[3].

Shuningdek, J. Dewey ta'limning amaliyot bilan bog'liqligini ta'kidlab, tajriba asosida o'rganish konsepsiyasini ilgari suradi[4].

Tadqiqotda ham qayd etilganidek, psixodidaktik yondashuv o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda psixodidaktika quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

- interfaol ta'lim metodlari
- motivatsiya va emotsional omillar
- raqamli ta'lim muhitlari
- individual ta'lim strategiyalari

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish
- umumlashtirish va tizimlashtirish
- kuzatish
- so'rovnoma
- psixologik diagnostika metodlari

Shuningdek, tadqiqot doirasida olingan empirik ma'lumotlar statistik usullar orqali qayta ishlangan[5].

Tadqiqotning muhim kalit atamasi tahliliga to'xtalib o'tsak. Psixodidaktika — bu o'qitish jarayonini o'quvchilarning psixologik xususiyatlari asosida tashkil etishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Kognitiv jarayonlar — idrok, tafakkur, xotira
2. Motivatsiya — ichki va tashqi rag'bat
3. Emotsional holat — qiziqish, ishonch, xavotir
4. Ijtimoiy muhit — kommunikatsiya va hamkorlik

**Kognitiv jarayonlar** psixodidaktikaning markaziy elementi hisoblanadi, chunki har qanday o'rganish jarayoni avvalo axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash orqali amalga oshadi.

Idrok (perception) — o'quvchining yangi til birliklarini (so'z, grammatik shakl, nutq) qabul qilish jarayoni

Tafakkur (thinking) — olingan bilimlarni tahlil qilish, umumlashtirish va qo'llash

Xotira (memory) — til materialini mustahkamlash va qayta tiklash

Vigotskiy va Piaje nazariyalariga ko'ra, bilimlar passiv tarzda emas, balki faol kognitiv faoliyat orqali shakllanadi. Bunda o'quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, tahliliy fikrlashni rag'batlantirish, faol bilim olish va almashishga yo'naltirilishi kerak.

**Metodologiya.** Metodik jihatdan o'zbek tilini o'qitishda vizual materiallar (rasm, jadval) idrokni kuchaytirsa, dialog va muhokama tafakkurni rivojlantiradi, takrorlash va kontekstual (*kontekstga (matn atrofidagi vaziyatga, bog'liqlikka) asoslangan, faqat shu matn doirasida tushuniladigan ma'no*) mashqlar xotirani mustahkamlaydi.

Bundan ko'rinadiki, kognitiv komponent o'qitishning "qanday o'rganiladi?" savoliga javob beradi.

Motivatsiya (ichki va tashqi rag'bat) - o'quv faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u o'quvchining o'rganishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishini belgilaydi.

Psixologiyada motivatsiya ikki turga ajratiladi:

Ichki motivatsiya — qiziqish, o'zini rivojlantirish istagi

Tashqi motivatsiya — baho, mukofot, ijtimoiy talab

Tadqiqotimizda qayd etilganidek, til o'rganishda ayniqsa ichki motivatsiya yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida motivatsiya quyidagi omillar bilan bog'liqligi namoyon bo'ldi. Bular,

- o'quv materialining qiziqarliligi
- o'qituvchining pedagogik uslubi
- o'quv muhitining qo'llab-quvvatlovchi xususiyati

O'zbek tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarni motivatsiyasini oshirishda interfaol ta'limni tashkil qilish to'g'ridan-to'g'ri darsga qiziqishini oshirishi, real hayotga bog'langan topshiriqlar qiziqishini kuchaytirishi va muvaffaqiyat hissi ichki motivatsiyani mustahkamlagani aniqlandi.

Tadqiqot hulosalariga ko'ra motivatsiya komponenti "nima uchun o'rganadi/kerak?" savoliga javob beradi.

Emotsional omillar o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Til o'rganishda ayniqsa psixologik to'siqlar (til qo'rquvi, xato qilishdan qo'rqish) muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotlariga ko'ra ijobiy emotsiyalar o'rganishni tezlashtiradi va aksi salbiy emotsiyalar (xavotir, qo'rquv) esa kognitiv faoliyatni pasaytiradi degan xulosalarga olib keldi.

Til o'rganishda "affektiv filtr" tushunchasi mavjud bo'lib, u o'quvchining emotsional holati bilimlarni qabul qilishga to'sqinlik qilishi yoki aksincha yordam berishini anglatadi. Bunda o'qituvchi qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi, xatoga tolerant yondashuv amalga oshirishi va kerakli o'rinlarda o'quvchini rag'batlantirish lozimligi aniqlandi. Jarayon va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, emotsional komponent "qanday holatda o'rganadi?" savoliga javob beradi.

Ijtimoiy muhit (kommunikatsiya va hamkorlik)- psixodidaktik yondashuvda o'rganish jarayoni individual emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida qaralishini taklif etadi. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra bilim ijtimoiy muhitda shakllanadi. Bunda kommunikatsiya o'rganishning asosiy vositasi hisoblanadi. Til o'rganishda ayniqsa muloqot, hamkorlik va guruhli faoliyat asosiy o'rin tutadi[1].

Ijtimoiy komponent "kim bilan va qanday muhitda o'rganadi?" savoliga javob beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, psixodidaktik yondashuv ko'p komponentli tizim bo'lib, uning har bir elementi o'zaro uzviy bog'liq holda ta'lim samaradorligini belgilaydi.

Komponent	Asosiy savol	Ta'limdagi roli
Kognitiv	Qanday o'rganadi?	Bilimni qayta ishlash
Motivatsion	Nima uchun o'rganadi?	Faollikni ta'minlash
Emotsional	Qanday holatda?	Psixologik tayyorlik
Ijtimoiy	Qayerda va kim bilan?	Muloqot va hamkorlik

Shunday qilib, psixodidaktika o'qitish jarayonini faqat metodik emas, balki inson markazli tizim sifatida tashkil etishga imkon beradi. Bu komponentlar o'zaro bog'liq holda til o'rganish samaradorligini belgilaydi.


Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy psixodidaktik tamoyillar belgilab olindi:

- faollik tamoyili
- izchillik va tizimlilik

- tushunarlilik va moslik
  - individuallashtirish
- Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari interfaol metodlar an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida quyidagi model taklif etiladi:



Olib borilgan tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda psixodidaktik yondashuvning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ta'lim jarayonida psixologik (kognitiv, motivatsion, emotsional) va didaktik omillarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Xususan, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi ortishi, o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi hamda ichki motivatsiyaning kuchayishi kuzatildi. Bu esa bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi, uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishi va amaliy faoliyatda qo'llanilishiga xizmat qilganligi bilan izohlanadi[5].

**Muhokama.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, psixodidaktikaning asosiy komponentlari — kognitiv, motivatsion, emotsional va ijtimoiy omillar — o'zaro uzviy bog'liq holda ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim tizimni tashkil etadi. Ayniqsa, o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan interfaol ta'limning psixodidaktik modeli ta'lim jarayonini tizimli va samarali tashkil etish imkonini beruvchi metodik asos sifatida taklif etildi. Mazkur model o'quv jarayonini maqsad, mazmun, metod, faoliyat va refleksiya bosqichlari orqali tashkil etib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, psixodidaktik modelni ta'lim jarayoniga joriy etish:  
– o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish,

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 24-sentabr) // <https://lex.uz/docs/5013007>.
2. Yuldasheva M, Gafurova N.I. – Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi): /O'quv qo'llanma/. Farg'ona-2026 yil. 290 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 27-mart). Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (157-son qaror). <https://lex.uz/docs/-6854214>
4. Xidoyatova D.A. (2023). Samarali interaktiv metodlar 1.0: metodik qo'llanma - Toshkent:vneshinvestprom. – B. 77
5. Xidoyatova, D.A. (2025). Interaktiv ta'lim modeli: nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanilishi/ monografiya / D.Xidoyatova. – Toshkent, 2025. – 158 b.

- o'qitish samaradorligini kuchaytirish,
- bilimlarning mustahkam va ongli o'zlashtirilishini ta'minlash,
- til kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish kabi muhim natijalarga olib keladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumlashmalarni keltirish mumkin:

Birinchiidan, psixodidaktik yondashuv o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda samarali ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Ikkinchiidan, kognitiv, motivatsion, emotsional va ijtimoiy komponentlarning o'zaro integratsiyasi ta'lim jarayonining yaxlit tizim sifatida samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

Uchinchiidan, interfaol metodlarni psixodidaktik asosda qo'llash:

- o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi;
- bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi;
- kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi;
- o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

To'rtinchiidan, ishlab chiqilgan psixodidaktik model ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va refleksiv yondashuvni kuchaytirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, psixodidaktik yondashuvni umumta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

6. Vygotsky, L. S. (1978). "Mind in society" Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. ISBN-13 978-0674576292.

7. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children (M. Piercy, & D. E. Berlyne, Trans.). New York, NY: International Universities Press, Inc. <https://doi.org/10.1037/11494-000>

8. Bruner, J. (1960). "The process of education". Cambridge, MA: Harvard University Press.

9. Dewey, J. (1938). "Experience and education". New York: Macmillan.

<http://ruby.fgcu.edu/courses/ndemers/colloquium/experienceducationdewey.pdf>